PREZIDENT MAKTABLARIDA TA’LIM NATIJADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA STRATEGIK BOSHQARUV SAMARADORLIGI

Allanazarova Dilnoza Saidovna
Buxoro shahridagi Prezident maktabi direktori, ingliz tili fani o‘qituvchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23274454

Annotatsiya. Ushbu tezisda Prezident maktablarida ta’lim natijadorligini baholash mezonlari strategik boshqaruv samaradorligi bilan bog‘liq holda ishlab chiqiladi. Tadqiqot hujjatlar tahlili, ilmiy adabiyotlarni qiyoslash va indikatorlarni konstruksiyalash usullariga tayandi. Natijadorlikning akademik natija, o‘quvchi rivoji, pedagogik sifat, tashkiliy samaradorlik, innovatsion faollik va manfaatdor tomonlar qoniqishi kabi olti o‘lchovi ajratildi. Har bir o‘lchov uchun kuzatiladigan indikatorlar, ma’lumot manbalari va boshqaruv qarorlari bilan bog‘lanish mexanizmi taklif etildi. Maqolada reyting yoki yakuniy ballga haddan tashqari tayanish strategik boshqaruvning real holatini to‘liq aks ettirmasligi, shu sababli ko‘p mezonli monitoring va davriy teskari aloqa tizimi zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim natijadorligi, baholash mezoni, strategik boshqaruv, KPI, sifat monitoringi, Prezident maktabi.

Abstract. This article develops criteria for evaluating educational effectiveness in Presidential Schools and links them to the effectiveness of strategic management. The study uses document analysis, comparative review of research, and indicator design. Six dimensions of effectiveness are proposed: academic outcomes, student development, instructional quality, organisational efficiency, innovation, and stakeholder satisfaction. Observable indicators, data sources, and their links to managerial decisions are suggested for each dimension. The article argues that excessive reliance on rankings or final examination scores cannot fully represent the quality of strategic management; therefore, a multidimensional monitoring system and periodic feedback cycle are required.

Keywords: educational effectiveness, evaluation criteria, strategic management, KPI, quality monitoring, Presidential School.

Kirish. Ta’lim muassasasining strategik boshqaruvi samarali yoki samarasiz ekanini baholash uchun avvalo natija tushunchasi nimani anglatishi aniqlanishi zarur. Prezident maktablari singari selektiv, yuqori akademik talablar asosida faoliyat yurituvchi ta’lim muassasalarida bu masala ayniqsa murakkab, chunki qabulning o‘zi kuchli akademik salohiyatga ega o‘quvchilarni saralash orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun maktab faoliyatini faqat o‘quvchilarning yuqori baholari bilan izohlash boshqaruvning haqiqiy qo‘shilgan qiymatini ko‘rsatmaydi.

PF-5815-son Farmonda iqtidorli yoshlarni aniqlash va o‘qitish, ularni qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy ta’lim resurslarini yaratish hamda ta’lim muassasalarini boshqarishning maxsus tizimini shakllantirish vazifalari belgilangan [1]. Prezident maktabi ustavida ta’lim sifati, xalqaro standartlarni hisobga olgan monitoring, pedagogik kadrlar malakasi, o‘quvchilarning individual rivoji va xalqaro hamkorlik bilan bog‘liq normalarning mavjudligi natijadorlikni ko‘p mezonli yondashuvda baholash uchun normativ asos yaratadi.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar maktab rahbarlarining ma’lumotlardan foydalanishi natijani yaxshilashda muhim, biroq bu ta’sir tashkiliy madaniyat, ma’lumot savodxonligi va

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

pedagogik hamkorlik orqali yuzaga chiqishini ko‘rsatadi. Lee, Camburn va Sebastian maktab rahbarlarining turli ma’lumot turlaridan foydalanishi o‘quvchi natijalariga bir xil ta’sir qilmasligini, ishonchga asoslangan maktab muhiti esa ma’lumotlardan samarali foydalanishni kuchaytirishini aniqlagan [2]. Niderlandiyalik olima Kim Schildkamp va hamkorlari esa ma’lumot jamoalarining samaradorligi rahbarning umumiy maqsad yaratishi, individual qo‘llab-quvvatlashi, intellektual rag‘batlantirishi va ma’lumotlardan foydalanish uchun xavfsiz muhit tashkil etishiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [3].

O‘zbekistonda Prezident maktablari faoliyatida strategik boshqaruv, monitoring va natijadorlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish masalalari Oybek Obidovich Davidxodjayev tadqiqotlarida alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqotchi Prezident maktablari tarmog‘ida strategik maqsadlarni aniq va o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar asosida nazorat qilishda Balanced Scorecard (BSC) yondashuvidan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan model moliyaviy barqarorlik, o‘quvchilar ta’lim natijalari, ichki jarayonlar samaradorligi hamda tashkiliy rivojlanish kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni yagona strategik monitoring tizimida baholashga asoslanadi. Mazkur yondashuvda har bir strategik maqsad uchun tegishli KPI ko‘rsatkichlari, boshlang‘ich holat va istiqboldagi maqsadli natijalarni belgilash nazarda tutiladi. Shuningdek, tadqiqotda real vaqt rejimidagi raqamli monitoringni boshqaruv qarorlari bilan integratsiyalash ta’lim muassasasining institutsional natijadorligini oshirish vositalaridan biri sifatida talqin etilgan. Ushbu ilmiy qarashlar Prezident maktablarida ta’lim natijadorligini oshirishga yo‘naltirilgan strategik boshqaruv modelini takomillashtirishda mezon va indikatorlarni tizimlashtirish, boshqaruv jarayonini natijaga yo‘naltirish hamda monitoringning axborot-tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi Prezident maktablarida ta’lim natijadorligini baholashning ko‘p mezonli tizimini taklif etish va ushbu mezonlarni strategik boshqaruv samaradorligi bilan bog‘lashdan iborat[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda Prezident maktablarining huquqiy va tashkiliy vazifalari hujjatlar tahlili orqali o‘rganildi. Bunda natijadorlikka daxldor mazmuniy birliklar – akademik sifat, pedagog kadrlar, o‘quvchining individual rivoji, tarbiya, xalqaro standartlar, innovatsiya, jamoatchilik nazorati va xalqaro hamkorlik kategoriyalari ajratildi.

Ikkinchi bosqichda ta’lim natijadorligi va data-informed leadership bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda qo‘llangan indikatorlar qiyoslandi. Indikator tanlashda to‘rtta mezon qo‘llandi: o‘lchash mumkinligi, maktab faoliyatiga bevosita aloqadorligi, boshqaruv qarorini qo‘llab-quvvatlashi va vaqt bo‘yicha dinamikani ko‘rsatishi. Shundan kelib chiqib, bir martalik ‘natija’ ko‘rsatkichlaridan tashqari jarayon va o‘sish ko‘rsatkichlariga ham ustuvorlik berildi.

Uchinchi bosqichda indikatorlar olti strategik yo‘nalishga birlashtirildi. Ushbu indikatorlar amaliyotga joriy etilganda maktabning mavjud axborot tizimlari, o‘quv natijalari, kuzatuv materiallari, so‘rovnomalar va kadrlar rivoji haqidagi ma’lumotlar asosiy manba bo‘lishi mumkin. Tadqiqot konseptual xarakterga ega bo‘lib, keltirilgan indikatorlar empirik ma’lumotlar sifatida emas, amaliy sinov uchun taklif etilgan mezonlar sifatida taqdim etiladi.

[1] Davidxodjayev O.O. Implementing Effective Strategic Monitoring and Control Mechanisms in Educational Institutions: The Case of the Balanced Scorecard. International Journal of Technology and Academic Research. 2026. Vol. 6, No. 5. P. 12–19. DOI: **10.5281/zenodo.20276563**. Zenodo

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Natijalar. Tahlil natijasida Prezident maktablari uchun quyidagi olti yo‘nalishdan iborat baholash tizimi taklif etildi.

Yo‘nalish	Asosiy indikatorlar	Ma’lumot manbalari	Boshqaruv qarori
1.Akademik natija	Fanlar bo‘yicha o‘sish dinamikasi; xalqaro/standartlashtirilgan baholash; olimpiada va tanlov natijalari	Baholash bazasi, diagnostika, akademik hisobotlar	O‘quv dasturi va qo‘llab-quvvatlashni qayta rejalashtirish
2.O‘quvchi rivoji	Tadqiqotchilik, kommunikativ, ijodiy va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar; individual maqsadlar bajarilishi	Portfolio, loyiha, rubrika, mentor kuzatuvi	Individual ta’lim yo‘li va mentorlikni kuchaytirish
3.Pedagogik sifat	Dars kuzatuvi; metodik hamkorlik; malaka oshirish natijasi; o‘quvchi o‘sishiga pedagogik hissa	Kuzatuv varaqalari, metodik reja, PD hisobotlari	Kasbiy rivojlanish va metodik yordamni maqsadli tashkil etish
4. Tashkiliy samaradorlik	Reja bajarilishi; qaror qabul qilish tezligi; resurslardan foydalanish; xavf boshqaruvi	Strategik reja, ichki monitoring, moliyaviy va ma’muriy hisobotlar	Resurslarni qayta taqsimlash va jarayonlarni optimallashtirish
5.Innovatsion faollik	Yangi metodika va texnologiyalarni joriy etish; STEAM loyihalar; raqamli yechimlar	Loyiha reyestri, metodik mahsulotlar, platforma	Muvaffaqiyatli innovatsiyalarni institutsionallashtirish
6.Manfaatdor tomonlar qoniqishi	O‘quvchi, ota-ona va xodimlar fikri; hamkor tashkilotlar bahosi; murojaatlarni hal etish	So‘rovnoma, fokus-guruh, murojaatlar tahlili	Kommunikatsiya va xizmat sifatini yaxshilash

Birinchi yo‘nalish – akademik natija. Prezident maktablari uchun bu eng ko‘rinadigan ko‘rsatkich bo‘lsa-da, uni absolyut ball orqali emas, o‘sish dinamikasi orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq. Kuchli saralashdan o‘tgan o‘quvchi 90 balldan 92 ballga o‘sishi bilan, 70 balldan 85 ballga ko‘tarilgan o‘quvchining rivojlanish sur’ati bir xil emas. Shu sababli diagnostik kirish darajasi va keyingi progress o‘rtasidagi farq boshqaruvning qo‘shilgan qiymatini aniqroq ko‘rsatadi.

Ikkinchi yo‘nalish – o‘quvchi rivoji. Ustavda iqtidorli o‘quvchilarning salohiyatini har tomonlama rivojlantirish vazifasi belgilangan. Demak, baholash tizimi faqat fan natijalarini emas, tadqiqot olib borish, jamoada ishlash, kommunikatsiya, ijodiy yechim ishlab chiqish va mustaqil o‘qish kompetensiyalarini ham qamrab olishi kerak. Ushbu ko‘rsatkichlar portfolio, loyiha rubrikalari va mentor kuzatuvlari orqali kuzatilishi mumkin.

Uchinchi yo‘nalish – pedagogik sifat. Yuqori natijali maktabning barqarorligi o‘qituvchilarning kasbiy rivoji bilan bog‘liq. Dars kuzatuvi faqat nazorat vazifasini bajarmasdan, o‘qituvchiga

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

rivojlantiruvchi teskari aloqa berishi lozim. Malaka oshirish tadbirlarining soni emas, ularning dars amaliyotiga ta’siri va o‘quvchi natijalaridagi ijobiy o‘zgarish muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish – tashkiliy samaradorlik. Strategik boshqaruv rejaning mavjudligi bilan emas, reja qanchalik amalda ishlayotgani bilan baholanadi. Maqsadlar bo‘yicha bajarilish darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi, muammolarni aniqlash va hal etish tezligi, mas’uliyatning aniq taqsimlanishi hamda xavflarga javob berish qobiliyati tashkiliy natijadorlikni ifodalaydi.

Beshinchi yo‘nalish – innovatsion faollik. Prezident maktablari ilg‘or pedagogik yondashuvlarni sinash va tarqatish salohiyatiga ega. Shu sababli yangilikning o‘zi emas, uning ta’lim natijasiga ta’siri baholanishi kerak. Masalan, yangi raqamli platforma joriy etilgan bo‘lsa, undan foydalanish chastotasi, o‘qituvchi va o‘quvchiga bergan qulayligi, ma’lumot sifati va qaror qabul qilishga qo‘shgan hissasi o‘rganiladi.

Oltinchi yo‘nalish – manfaatdor tomonlar qoniqishi. Ota-ona, o‘quvchi va xodimlarning muntazam fikrini o‘rganish boshqaruv uchun erta ogohlantirish mexanizmini yaratadi. Bunda qoniqish darajasi ‘obro‘ ko‘rsatkichi’ sifatida emas, jarayonlarni yaxshilashga xizmat qiluvchi ma’lumot sifatida talqin qilinishi zarur.

Muhokama. Ko‘p mezonli baholash tizimi strategik boshqaruvga ikkita muhim ustunlik beradi. Birinchidan, u rahbariyatni bitta indikatorning hukmronligidan himoya qiladi. Agar faqat yakuniy imtihon natijasi asosiy mezonga aylansa, maktab qisqa muddatli natijaga erishish uchun testga yo‘naltirilgan ta’limga haddan tashqari urg‘u berishi mumkin. Ikkinchidan, ko‘p o‘lchovli tizim natijani keltirib chiqaruvchi jarayonlarni ko‘rsatadi. O‘quvchi natijasi pasayganda, pedagogik sifat, davomat, mentorlik, resurslar yoki psixologik muhit bilan bog‘liq sabablarni aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Strategik boshqaruv samaradorligini baholashda indikatorlarning maqsadli qiymatlari maktabning oldingi natijasi va real kontekstiga tayangan holda belgilanadi. Barcha Prezident maktablari uchun mutlaq bir xil ko‘rsatkich belgilash ayrim holatlarda noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tarmoq bo‘yicha umumiy standartlar saqlangan holda, maktabning boshlang‘ich holati va rivojlanish trayektoriyasi ham hisobga olinishi kerak.

Boshqaruv paneli choraklik va yillik siklda ishlashi maqsadga muvofiq. Choraklik monitoring operativ tuzatishlar uchun, yillik tahlil esa strategik maqsadlarni qayta ko‘rib chiqish uchun xizmat qiladi. Shu tariqa ma’lumot yig‘ish hisobot tayyorlashning yakuniy bosqichi emas, strategik qarorlarning boshlang‘ich nuqtasiga aylanadi.

Xulosa. Prezident maktablarida ta’lim natijadorligini baholash akademik natijalar, o‘quvchi rivoji, pedagogik sifat, tashkiliy samaradorlik, innovatsion faollik va manfaatdor tomonlar qoniqishini qamrab olgan ko‘p mezonli tizim asosida olib borilishi lozim. Bunday yondashuv strategik boshqaruvning natijaga qo‘shgan real hissasini ko‘rish imkonini beradi.

Taklif etilgan mezonlar strategik rejalashtirish, ichki monitoring va rahbarlik qarorlarini yagona axborot zanjiriga birlashtirishga xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlarda indikatorlarning ishonchliligi va validligini Prezident maktablari kesimida empirik ma’lumotlar bilan tekshirish, vazn koeffitsiyentlarini aniqlash hamda raqamli boshqaruv panelini sinovdan o‘tkazish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi PF-5815-son Farmoni. https://lex.uz/docs/4504788
2. Lee C., Camburn E.M., Sebastian J. School context, school leaders’ data-informed decision making, and student achievement. School Effectiveness and School Improvement, 2025. https://doi.org/10.1080/09243453.2024.2436889

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Schildkamp K. et al. How school leaders can build effective data teams: five building blocks for a new wave of data-informed decision making. Journal of Educational Change, 2019. https://doi.org/10.1007/s10833-019-09345-3
4. Prezident maktabining Ustavi. Buxoro, 2023. (Tadqiqotda taqdim etilgan ichki me’yoriy manba.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.